Sizning jigaringiz tezda o'sadi. Birinchi 2 hafta ichida katta o'sish kuzatiladi. U juda ko'p ishlaydi, shuning uchun siz ayniqsa charchaganingizni his qilishingiz mumkin, ayniqsa birinchi oyda.

Shifokoringiz chuqur nafas olish va engil mashqlarni tavsiya qilishi mumkin. Kundalik yurishlar sizni tiklashga yordam beradi. Sizda ba'zi cheklovlar bo'ladi. Sizning oshqozoningiz davolanmaguncha, siz 15-20 funtdan og'irroq narsalarni ko'tarmasligingiz kerak. Sizga xarid qilish yoki ovqat tayyorlash kabi kundalik mashg'ulotlarda yordam kerak bo'lishi mumkin. Do'stingizdan yoki oila a'zolaringizdan yordam qo'lini so'rang. Siz darhol tuzalmaysiz ayniqsa og'riq qoldiruvchi vositalarni qabul qilsangiz. Agar siz dori-darmonlarni to'g'ri qabul qilsangiz va shifokorning ko'rsatmalariga rioya qilsangiz, tezda tuzalasiz.

Xulosa: Shunday qilib, so'ngi yillarda jigar transplantatsiyasi dunyo miqiyosida keng qo'llanilmoqda, Ushbu yo'nalishda ko'p sonli jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish zarurati tufayli bugunga kelib, akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy markazi xodimlari tomonidan muassasada gepatobiliar jarrohligi va jigar transplantatsiyasining ikkita yangi bo'limi tashkil etildi. Natijada o'tgan 2021-yil markazda 8 ta mustaqil jigar transplantatsiyasi amaliyoti muvaffaqiyatli bajarildi. 2022 yilning shu davriga qadar esa yana 12 ta ana shunday murakkab amaliyot o'tkazilgan. Keyingi yillarda bu amaliyotlar soni oshgan. Yaqin kelajakda ushbu xirurgik jigar transplantatsiyasida o'z xissamni qo'shish va xalqimizga sifatli yordam berishga harakat qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.cureindia.com/ru/treatments/hindistonda-jigar-transplantatsiyasi>
2. <https://www.alfplus.com/uz/treatments/359>
3. **Xirurgik kassaliklar kitobi ; Muallif Sh.Karimov**

ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Rohila Qo'chqorovna

Uchquduq sanoat texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Bomirzayeva Maqsuda Istamqulovna

Uchquduq sanoat texnikumi matematika Informatika fani o'qituvchisi

Shakarova Lobar Aktamovna

Uchquduq sanoat texnikumi kimyo va ekologiya fani o'qituvchisi

Quchqorova Gullola Janiqulovna

*Uchquduq sanoat texnikumi biznesni tashkil etish
va yuritish fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, hamda ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga yangicha yondashish borasida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogic mutaxassisleri, innovatsion yondashuv.

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik Texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor,elektron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z

faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy- texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nggi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan kimyo sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, electron doska va hokazo) foydalanishi, interfaol metodlar asosida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish lozim. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin. O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, hamda shu asosida dars o'tishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Ma'lumki, har shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini

tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiyasi

butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, etarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Innovatsion usullarda dars o'tish jarayonini, ya'ni zamonaviy pedagogic texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim davridan boshlab tashkillashtirish ta'lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta'lim jarayonlarining o'tilishida ham qulayli yaratgan bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, boshlang'ich ta'limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta'limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008.-180 b.
- 3 Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).– T.: Iste'dod, 2010.-140 b.

YARIM ÓTKIZGISHLERDEGI P-N KERI ÓTIWINDEGI TOK AĞIMINIŇ ARTIWIN ANALIZLEW

Abdreymov A.A., Xojamuratova J.R.

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Anotaciya

Berilgen tok aǵımınıń buzılıw shártlerin qollanıp maydannıń ionizaciya koeficientiniń jaylasıwına baylanıslı buzılıw kernewin anıqlaw múmkin. maksimal elektr maydan hám birigiw oblastınıń betin anıqlaw múmkin. Elektr maydan hám birigiw qatlamı potentsialı Puasson teńlemesinen anıqlanadı. Qatlam shegarasınıń halı, izbe- iz jaqınlasıw sanlı metodı menen anıqlaw múmkin. Tok aǵımınıń artıwı, yamasa soqqı ionizaciyasi, p-n ótiwdegi áhmiyetli mexanizm bolıp tabıladı. Tok aǵımınıń buzılıwı kernewi diodlardáǵı kerı kernewdiń joqarǵı shegarasın anıqlaydı. Bunnan basqa optikalıq signallardıń soqqı mexanizmi, fotodioldlardáǵı sıyaqlı qublıslar bolıp ótedi. Júdá joqarı konsentraciyalarda tok aǵımınıń buzılıwı tunellik mexanizminiń payda bolıwına alıp keledi. .Arsenid galliyde soqqı ionizaciyasi koeficiyenti kristal orientaciyasına baylanıslı.

Aǵımınıń artıwı, yamasa soqqı ionizaciyasi, p-n ótiwdegi áhmiyetli mexanizm bolıp tabıladı. Tok aǵımınıń buzılıwı kernewi diodlardáǵı kerı kernewdiń joqarǵı shegarasın anıqlaydı. Bunnan basqa optikalıq signallardıń soqqı mexanizmi fotodioldlardáǵı sıyaqlı qublıslar bolıp ótedi.

Bul jumista tiykarǵı tok aǵımınıń buzılıw shártlerin anıqlaymız. Meyli shep táreptegi qurawshı oblastınıń eni W arqalı J_{p0} tok ótedi. Eger elektr maydan birigiw oblastında joqarı bolıp, soqqı ionizaciyasınıń payda bolıwı menen bul maydan elektron gewek juplıǵın generaciyalaydı gewek tiykarındaǵı tok mánisi kordinat ózgeriwi menen J_p ǵa jetedi hám oń qurawshı oblast shegarasında ($x=W$) toqtıń mánisi $M_p J$ jetedi. Úzliksiz túrde elektron tiykarındaǵı tok J_n kordinatası $x=W$ dan $x=0$ ge shekem artadı. Toliq tok $J=J_p+J_n$ ózgerissiz halda turaqlı boladı. [1]

Gewek tiykarındaǵı tok artıwı x koordinatasındaǵı tochkada electron tesikli juplıqtıń 1 sekund ishindegi dx aralıqtaǵı generaciyanıwındaǵı mánisine jetedi.

$$d\left(\frac{J_p}{q}\right) = \left(\frac{J_p}{q}\right) \cdot (\alpha_p \cdot dx) + \left(\frac{J_n}{q}\right) \cdot (\alpha_n \cdot dx) \quad (1) \text{ yamasa}$$

$$\frac{dJ_p}{dx} - (\alpha_p - \alpha_n) \cdot J_p = \alpha_n \cdot J \quad (2)$$

Electron hám gewekli ionizaciya koeficiyenti (α_n hám α_p)

α_n -elektron ionizaciya koeficiyenti

α_p -gewekli ionizaciya koeficiyenti.

$$\frac{dJ_p}{dx} - (\alpha_p - \alpha_n) \cdot J_p = \alpha_n \cdot J \quad (2) \text{ теңмесинің shegaralıq shárti}$$

$$J = J_p(W) = M_p \cdot J_{J=0} \quad (3) \text{ boyınsha tómendegishe jazıladı.}$$

$$J_p(x) = \frac{J \left\{ \frac{1}{M_p} + \int_0^x \alpha_n \cdot \exp \left[- \int_0^x (\alpha_p - \alpha_n) dx^1 \right] dx \right\}}{\exp \left[- \int_0^x (\alpha_p - \alpha_n) dx^1 \right]} \quad (4)$$

bunda M_p - geweklerdiń kóbeyiw koeficiyenti $M_p \equiv \frac{J_p(W)}{J_p(0)}$ ға тең (5).

(4) hám (5) теңлемени tómendegishe jazamız.

$$1 - \frac{1}{M_p} = \int_0^W \alpha_p \exp \left[- \int_0^x (\alpha_p - \alpha_n) dx^1 \right] dx \quad (6)$$

Eger M_p sheksizlikke umtılgandaǵı kernewdi aǵım buzılıwındaǵı kernew bolıp tabıladı. Buzılıw shártleri izbe- iz túrde integral ionizaciyasın keltirip shıǵaradı.

$$\int_0^W \alpha_n \cdot \exp \left[- \int_0^x (\alpha_p - \alpha_n) dx^1 \right] dx = 1 \quad (7)$$

Eger tok aǵımın payda bolıwı geweklerden emes , al, elektronlardan baslansa onda integral ionizaciyası toımendegishe jazıladı.

$$\int_0^W \alpha_n \exp \left[- \int_0^x (\alpha_n - \alpha_p) dx^1 \right] dx = 1 \quad (8)$$

(7) hám (8) теңлемeler óz ara тең kúshli yaǵnıy ekvivalentli .[2].Onda buzılıw shártleri lavınno proboydı keltirip shıǵarıwshı tasıwshılarga hám dáslepki tokqa emes, al birigiw oblastı dógeregindegi qublıslarga baylanıslı boladı.

Eger buzılıw arlaspadaǵı dáslepki tok tárepinen keltirip shıǵarılǵan bolsa onda (7) hám (8) shártler orınlanbaǵansha ózgermeydi.Eger ionizaciya koeficiyenti тең bolǵan yarım ókizgishlerde $\alpha_n = \alpha_p = \alpha$ (7) hám (8) integral tómendegishe jazıladı.

$$\int_0^W \alpha dx = 1 \quad (9)$$


Berilgen **buzılıw** shártlerin qollanıp maydannıń ionizaciya koeficiyentiniń jaylasıwına baylanıslı bolıw kernewin anıqlaw mumkin.maksimal elektr maydan hám birigiw oblastınıń betin anıqlaw múmkin.Elektr maydan hám birigiw qatlamı potentsyal Puasson теңlemesinen anıqlanadı.Qatlam shegarasınıń hal ,(7) теңлемени qanatlandıra, izbe- iz jaqınlasıw sanlı metodı menen anıqlaw mumkin. Eger birigiw oblastınıń eni belgili bolsa, onda proboy kernewi V_b simmetriyalı emes birden ótiwinde tómendegishe anıqlanadı.

$$V_b = \frac{E_m \cdot W}{2} = \frac{\epsilon_s \cdot E_m^2}{2q} (N_b)^{-1} \quad (10)$$

Al sızıqlı ótiwde :

$$V_b = \frac{2 \cdot E_m \cdot W}{3} = \frac{4 \cdot E_m^{\frac{3}{2}}}{2q} \left(\frac{2\varepsilon_s}{q} \right)^{\frac{1}{2}} (a)^{-\frac{1}{2}} \quad (11)$$


Bul jerde N_b -hálsiz ligerlengen oblasttaǵı ionlanǵan aralaspalar konsentraciyası. ε_s -yarım ótkizgishtıń dielektrik sıńırıwshiligi. a -aralaspa gradiyettiniń konsentraciyası. E_m -maksimal elektr maydan.



Súwret -1 [5] Orentaciya <100> bolǵandaǵı GaAs, Ge, Si simmetriyası emes teksheli ótiwde aralaspalar konsentraciyası menen tok aǵısınıń buzılıwındaǵı kernewiniń arasındaǵı baylanıs.


Buzılıw kernewiniń N_b hálsiz ligerlengen oblasttaǵı ionlanǵan aralaspalar konsentraciyası arasındaǵı esaplawlardaǵı orentaciya <100> bolǵandaǵı GaAs, Ge, Si hám GaP da [3] arasındaǵı baylanıs 1- súwrette kórsetilgen. Eksperimental baqlawlar natiyjeleri menen teoriyalıq esaplawlar sáykes keledi. [4]. Shtrixlanǵan sızıqlar joqarǵı shegarası tok aǵısınıń buzılıwın esaplawlarda N_b menen belgilenedi. Bul shegara $6E_g/q$ kriteriya tiykarında analizlenedi.

Júdá joqarı konsentraciyalarda tok aǵısınıń buzılıwı tunellik mexanizminine sezilerli úles qosa baslaydı yaǵnıy payda bolıwına alıp keledi, aqırında ústinlikke erisedi. Arsenid galliyde soqqı ionizaciyası koeficiyenti kristal orientaciyasına baylanıslı.



Súwret -2 [5] GaAs deǵı kernewlerdiń hár qıylı oryentaciyalarda kórinisi. Bul súwrette probay kernewiniń V_b <111> hám <110>, <100> oriyentaciyalarǵa baylanısı kórsetilgen.

Kórinip turǵanıday proboy kernewiniń orientaciya menen hálsiz baylanısı aralaspa koncentraciyası $\sim 10^{16} \text{sm}^{-3}$. bolǵanda orınlı. Eger júdá hálsiz ligerlengen V_b proboy kernewiniń maksimal mánisi $\langle 111 \rangle$ oriyentaciyada bolıp ótedi. Kúshli ligerlengen jaǵdayda V_b proboy kernewiniń maksimal mánisi $\langle 100 \rangle$ oriyentaciyada bolıp ótedi [35].



3-súwrette [5] proboy kernewiniń aralaspa konsentraciyanıń gradiyenti aǵıwshı sıızıqlı ótiwlerdegi yarım ótkizgishlerde joqarı bahalanadı. Shtrixlanǵan liniyalar joqarǵı shegarası α menen belgilengen bunda lavinno proboydı esaplaw tuwrı boladı. Maksimal maydandı esaplawlarda E_m hám birigiw qatlamı eni buzılıw halında birden ótiwlerde (teksheli sekirmeli ótiwlerde) tórt túrli yarım ótkizgish kórsetilgen [3].

Kremniydegi p-n ótiwde maksimal maydan tómendegishe ańlatıladı.

$$E_m = \frac{4 \cdot 10^3}{1 - \frac{1}{3} \lg\left(\frac{N_b}{10^{16}}\right)} \left[\frac{B}{\text{sm}} \right] \quad (12)$$

Bul jerde N_b ólshem birliǵi sm^{-3} te ólshenedi. Baqlawlar ionizaciya koeficiyentiniń maydanǵa kúshli baylanıslılıǵı maksimal maydan shaması N_b ǵa hám α ǵa hálsiz baylanısqan. Sol sebepli birinshi halda berilgen yarım ótkizgishte E_m turaqlı dep esaplaymız. Bunda (10-11) ańlatpalardan birden ótiwde $V_b \sim N_b^{-1.0}$, al sıızıqlı ótiwde $V_b \sim \alpha^{-0.5}$. Bulardıń tastıyıqlaw retinde 1-2-3 súwretlerdi keltirsek boladı. Bunnan basqa N_b hám α buzılıw kernewi qadaǵan etilgen zonanıń artıwı menen artadı. Tok aǵısınıń artıwı menen bir zonadan ekinshisine zaryad tasıwshılardıń ótiwi baqlanadı. Alınǵan nátiyjeler tiykarında buzılıw kernewiniń birden ótiw jaǵdayında tómendegi teńlikti alamız.

$$V_b = 60(E_g / 1,1)^{3/2} (N_b / 10^{16})^{-3/4} \quad [B] \quad (13)$$

Bunda E_g - ójire temperaturasındaǵı qadaǵan etilgen zonanıń eni, eV; N_b -hálsiz ligerlengen oblastta aralaspa koncentraciyası, sm^{-3} . Úzliksiz túrde sıızıqlı ótiwde :

$$V_b = 60(E_g / 1,1)^{6/5} (\alpha / 3 \cdot 10^{20})^{-2/5} \quad [B] \quad (14)$$

Bunda α -aralaspa koncentraciyası gradient, sm^{-4} . p-n ótiw ushın ,berilgen diffuziyalıq metod penen ,sıızıqlı bólistiriliwde aralaspanıń birtárepinde turaqlı konsentraciya aralaspaları basqa tárepine ótiwinde buzılıw kernewi buzılıw

kerewiniń teksheli hám sıızıqlı ótiwinde aralıq mánisine erisedi. α nıń úlken mánisinde hám N_b niń kishi mánislerinde proboy kerewi diffuziyalıq ótiwine alıp keledi.

Solay etip, juwmaqlap aytqanda, yarım ótkizgishlerdegi p-n ótiwlerdegi elektr maydan tásirinde tiykargı emes tok tasiwshılardıń konsentraciyasınıń ózgerisi nátiyjesinde kerı toktıń artıwına alıp keledi. Júdá joqarı konsentraciyalarda tok ağısınıń buzılıwı tunellik mexanizminine sezilerli úles qosa baslaydı yaǵnıy payda bolıwına alıp keledi, aqırında ústinlikke erisedi. Arsenid galliyde soqqı ionizaciya koeficiyenti kristal orientaciyasına baylanıslı.

Paydalanılǵan adebiyatlar:

1. И. В. Грехов, Ю.Н. Сerezкин Лавинный пробой p-n перехода в полупроводниках.-Л.: "Энергия", 1980, 152с
2. Lundberg P. J., private communication.
3. Sze S.M., Gibboris G. Avalanche Breakdown Voltage of Abrupt and Linearly Graded p-n Junctions in Ge, Si, GaAs, and GaP, Appl. Phys, Lett., 8, 111 (1966)
4. Warner R.M., Avalanche Breakdown in Silicon Diffused Junctions, Solid State Elektron .15, 1303 (1972)
5. A. Goetzberger, W. Shockley, Structure and Properties of Thin Films, ed. by C. A. Neugebauer et al., J. Wiley. Sons, New York, 1959, СТР. 298.
6. Коршунов Ф. П., Марченко И. Г. Особенности изменения температурной зависимости дифференциального сопротивления в области лавинного пробоя облученных кремниевых p-n переходов. //ФТП, 1983, т .17, в 12,с 2201 - 2203.
7. Коршунов Ф. П., Марченко И. Г., Лостовский С. Б. Влияние радиационных дефектов на лавинный пробой и свойства микроплазм кремниевых p-n пере- ходов. -Вкн.:Тез.докл. X В сес. конф. по физике полупроводников. Минск, 1985, ч.3, с. 38-39.
- 8.Акимов П.В.,ГреховИ.В., Сerezкин Ю. Н. Температурная завмсимость нап ряжения лавинного пробоя диодов,изготовленных из кремния с высоким содержанием растворенного кислорода .//ФТП, 1975.т.9,в.4,с764-767.
9. Кузьмин В.А., Крюкова Н.Н., Кюрегян А. С. Об ударной ионизации глубоких уровней в полупроводниках. //ФТП.1974. т. 8,в. 5.с. 945-949.
- 10.Тагер А.С., Вальд-Перлов В.М .Лавинно-пролетные диоды.М.,1968.480 с.
- 11.Кузьмин В.А .,Кюрегян А .С.Теория вольтамперной характеристики $p^+ - i - n^+$ -структуры из компенсированного полупроводника в режиме лавинного пробоя –радиотехн.и электрон.,1975.т.20.в.7.с.1449-1456.
- 12.БогородскийО.В.,ВоронцоваТ.П.,ЖгутоваО.С.идр .Исследование механизмов снижения напряжения пробоя кремниевых высоковольтных многослойных структур.-ЖТФ,1985,т.55,в.7,с.1419-1425.

YANGI DORI VOSITALARINING YARATILISHI VA TIBBIYOT AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI

Quryazova Gulzebo Farxadovna

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat
salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi dori vositalarining yaratilishi va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilish jarayonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: dori, oqsil, farmakologiya, antibiotik, mog'or, immunologiya.

Uzoq o'tmishda yangi dori vositalarining manbai o'sirliklar, hayvon a'zolari, mineral moddalar hisoblangan. XIX asr o'rtalarida esa dori vositalarini kimyoviy sintez yo'li bilan olishga erishildi. Keyinroq, immunologiya, biotexnologiya va boshqa fanlarning rivoj topishi natijasida organ va to'qimalardan olingan va tayyorlangan dori vositalari yaratildi. Mog'orlardan antibiotiklarning olinishi va ulami texnologiyasi yo'liga qo'yildi. Aralash va individual toza dori vositalarini olishga erishildi. Farmakologiyada yangi dori vositalarini yaratishga (olinishi, tekshirib ko'rish, tayyorlanishi, amaliyotga tatbiq etilishi, ishlatilishi) taalluqli bir necha iboralar uchray turadi. Ulami to'g'ri tushunish, tahlil etish va ishlata bilish ma'lum bir ahamiyatga egadir. Dorivor o'simliklar - dorivor manba sifatida qo'llaniluvchi o'simliklar. Ulardan ta'sir etuvchi biologik faol moddalar (alkaloidlar, glikozidlar, flavonoidlar, eftr moyi va b.) ajratib olinadi Yoki O'simliklarning o'zidan dori shakltari (damlama, qaynatma va h.) tayyorlanadi va farmakologik tekshirishga beriladi. Dorivor o'simlik manbai - maxsus tashkilot tomonidan ma'lum tartibda, tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan o'simlik xomashyosi. Farmakologik vosifa - klinik tekshirishga mo'ljallangan farmakologik faol modda yoki moddalar aralashmasi. Dori moddasi - dori shakli berilmagan modda bo'lib, tanaga kiritilgach, a'zolarga davolovchi ta'sir etadi. Dori preparati - fannatsiyada o'ziga xos nom bo'lib, dori vositasining yoki moddasining davo ko'rsatadigan ma'lum bir dori shaklidagi ko'rinishi.

Dori vositasi - kasallikni aniqlash, davolash yoki oldini olish maqsadida tavsiya etilgan tabiiy yoki sintez yo'li bilan olingan (toza yoki aralashma) farmakologik modda. Dori; shakli - davolovchi ta'sir ko'rsatadigan dori moddasi yoki vositasi bo'lib, ishlatish uchun qulay va davo samarasini saqlagan ma'lum bir ko'rinishi - shakli. Yangi dori vositasi - uch yil davomida amaliyotda ishlatilayotgan, davlat reyestriga kiritilgan va ishlab chiqarilayotgan dori preparati. Platsebo - yangi dori preparatini klinika sharoitida sinab ko'rish usuli. Tekshirilayotgan dori preparati tarkibida ta'sir etadigan modda o'miga indifferent modda qo'shilgan bo'ladi. Pinhoniylar - yangi dori preparatini klinik tekshirish usuli. Bunda sinalayotgan dori faolligini taqqoslash uchun

berilayotgan platsebo yoki standart dori preparati. Farmakodinamika - dori vositasining farmakologik ta'siri va ta'sir mexanizmi. Yaratilgan yangi dori vositalarini - preparatlarni tibbiyot amaliyotiga joriy etish uchun ular maxsus davlat tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqilishi lozim. Bunday huquq 1992- yilda Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida tashkil etilgan Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasiga berilgan. Bu boshqarma tarkibidagi farmakologiya, farmakopeya qo'mitalari va standartlash kimyoviy markazining talablari bo'yicha taklif etilayotgan dori vositasining tegishli hujjatlari ko'rib chiqilib, tekshiruvdan o'tkaziladi va mutaxassislar (ekspertlar) fikrlariga asoslangan holda maxsus qaror bilan ushbu dori preparatini ishlatishga ruxsat beriladi hamda davlat reyestriga kiritiladi. Mustaqillik tufayli bu boshqarmani tashkil etilishi xalqimizni samarali, xavfsiz va arzon dori vositalari bilan ta'minlashga katta imkoniyat tug'dirdi. Chunki sobiq Ittifoq davrida bunday imkoniyat juda ham kam edi. Bizlarga bo'lgan ishonch va e'tibor nomiga edi, xolos. Umuman olganda, yangi dori moddalarini topish, tekshiruvdan o'tkazish va ularni amaliyotga joriy etish, turli mutaxassislar faoliyatining natijasi bo'lib, bunda ko'proq kimyo, farmakologiya va farmatsiya sohalari xodimlarining ahamiyati kattadir. Bu o'ziga xos ancha murakkab, ko'p mablag' va vaqt talab etadigan vazifadir. Dori moddasini preparat sifatida tibbiyot amaliyotiga o'tkazishda farmakologlar tomonidan bajariladigan eksperimentlar natijasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu bilan bir qatorda, kimyogar va farmatsiya mutaxassislarining va, ayniqsa, texnologlarning vazifasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi dori moddalarini izlash, tekshirish, tajribadan o'tkazish asosan quyidagi usullarda olib boriladi. Empirik (empiriko-tajriba) - kimyoviy usulda olingan biror-bir moddaning farmakologik faolligini o'rganish. Birlamchi moddaning qaysi farmakologik guruhga ta'aluqli ekanligi oddiy tajriba usullari yig'indisi yordamida aniqlanadi. So'ngra uning faolligi amaldagi o'xshash dori preparati bilan taqqoslanadi. Ushbu usul «saralash» (skrining) deb yuritiladi. Maxsus farmakologik yoki farmatsevtik muassasalarda ushbu usulda ko'plab dori preparatlari ayrim farmakologik ta'sirlari bo'yicha guruhlarga ajratib o'rganiladi. Bu usul «yo'naltirilgan izlanishlar» usuli deb ham yuritiladi.

U o'ziga xos kamchiliklardan xoli emas, chunki bunda o'rganilayotgan dori vositalarining boshqa foydali xususiyatlari ochilmay qolishi mumkin. Mohiyati jihatdan bu usul «chegaralangan saralash» usuli deb sanaladi. Yangi dori vositalarini yaratishda keng tarqalgan usullardan biri «tuzilish modifikatsiyasi» usulidir. Kimyoviy laboratoriyalarda ma'lum dori preparatining kimyoviy tuzilishiga turli radikallar, birikma qismlari yoki metallarning kiritilishi natijasida yangi farmakologik xususiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu usul yordamida dori vositasining zaharlilik darajasini kamaytirishga yoki tanlab ta'sir etishini ta'minlashga, davo samarasini oshirishga erishish mumkin. Ushbu maqsadli sintez usuli orqali oldindan mo'ijallangan farmakologik xususiyatli dori vositalarini yaratishga erishiladi va

mavjud dori preparatlar guruhiga oid yangi dorilarni kashf etishda qo'l keladi. Natijada, ayrim a'zo va to'qimalarga ta'sir etuvchi dorilar guruhi boyitiladi. Qayd etish darkorki, asosiy modda radikalini o'zgartirish uning eruvchanligining o'zgarishiga sabab bo'ladi, moddaning hujayra pardasidan o'tuvchanligi o'zgaradi, uning hujayra ichki muhiti qurilmalari bilan munosabati osonlashadi va farmakologik samarasi namoyon bo'ladi. Antagonist - zid ta'sirli moddalarni sintez qilish yo'li bilan dori vositasini yaratish ham ahamiyatlidir. Bu borada bir qator gonnonal, fermentli, o'simliklardan olingan va boshqa turli kimyoviy tuzilishdagi amaliyotda qo'llanilayotgan dori preparatlarining antagonistlari mavjud bo'lib, ular dori moddalari salbiy ta'sirining oldini olish va uni bartaraf etishda keng qo'llaniladi. Biotexnologiya fani mikroorganizmlar, hayvon, odam a'zolari, o'simliklardan dori vositalari olish bilan shug'ullanadi. Bunga misol qilib tibbiyot amaliyotida keng miqyosda qo'llanilib kelinayotgan antibiotiklar, gormonal, fermentli, biogen dori vositalarini keltirish mumkin. Biologiya fanining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan «genlar muhandisligi») usuli ham yangi dori vositalarini yaratishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu usul yordamida ayrim bezarar mikroorganizmlar, jumladan, ichak tayoqchasiga genlarni ko'chirib o'tqazish bilan, ma'lum oqsil tuzilishidagi fiziologik faol moddalarni olishga erishiladi. Bunday izlanishlar natijasida o'ta zarur bo'lgan odam insulini olindi. Genlar muhandisligining imkoniyati keng bo'lib, inson organizmiga ham genlarni ko'chirib o'tqazish imkoniyati mavjudligi isbotlandi. Shunday qilib, yangi dori vositalarini yaratishda turli manbalardan, usullardan foydalaniladi.

BAXTSIZ HODISALARNING OLDINI OLISH

Allaberganova Sevinchoy Ruslanovna
Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kundalik turmush sharoitida yuz berishi mumkin bo'lgan turli mayishiy baxtsiz hodisalarni oldini olish tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: avtomobil, transport, piyoda, harakat, hodisa, talofat.

Hozirgi vaqtda avtomobil transportining jadal rivojlanishi va harakat intensivligining oshishi piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlash muammosini ilgari surmoqda. Shu munosabat bilan yo'l transporti hodisalarining oldini olish, yoshlarga yo'l harakati qoidalarini tushuntirish hamda ko'cha va yo'llarda intizomga rioya qilish malakalarini singdirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni ko'cha va yo'llarda, jamoat transportida intizomli bo'lishga o'rgatish butun o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi, o'zlashtirilgan qoidalar, belgilangan tartibga rioya qilish esa bolalarning doimiy ehtiyoji bo'lib qolishi kerak. Buning uchun yoshlarni muntazam ravishda yo'l harakati qoidalariga o'rgatish zarur. Shu maqsadda darsda yo'lda shikastlanishning oldini olishga oid ma'lumotlar berish tavsiya etiladi. STTning bu yo'nalishini amalga oshirish jarayonida o'quvchilarda harakat qoidalarini ongli idrok etib, ularni vaqtida to'g'ri qo'llashga imkon beradigan muayyan bilimlarni berish sayr vaqtlarida, o'qishga borish va qaytishda harakat xavfsizligini ta'minlaydigan zarur malakalarni hosil qiladi. Turli xildagi shikastlanishning oldini olish ham o'qituvchi-pedagogning ishida alohida o'rin egallaydi. Bolalar uchi o'tkir predmetlardan foydalanishda, tepalikda chana uchishda, narvonda yurganda, ko'ngilochar o'yin va tomoshalar vaqtida ehtiyot bo'lishi, kuyish, it qopishi, ilon-chayon kabilarning chaqishidan saqlanish yo'llarini bilishlari lozim. Ularga noma'lum narsalar (o'simlik, qo'ziqorin, kimyoviy kukun va suyuqliklar) ta'mini nima uchun tatib ko'rish mumkin emasligini tushuntirish zarur. O'tkir buyumlar (qaychi, vilka, pichoq, igna va hokazolar)dan noto'g'ri foydalanish, turli xavfli o'yinlar (pichoq sanchish, roqatka otish) bilan mashg'ul bo'lgan ish vaqtida shikastlanish mumkin. Bu o'rinda bolalar bilan sodir bo'lgan ba'zi baxtsiz hodisalardan misollar keltirish zarur. Bolalar koptok o'ynash, chana, konki va velosipedda uchishni juda yaxshi ko'radilar. Lekin ular sho'xlik qilsalar, o'yin vaqtida intizomga rioya qilmasalar, o'zlari va boshqalarga shikast etkazishlari mumkin. Shu munosabat bilan bolalarni turli o'yinlar o'ynash va vaqtni ko'ngilli o'tkazish paytida amal qilish lozim bo'lgan qoidalari bilan tanishtirish kerak. Barcha harakatli o'yinlarning muayyan shikastlanmaslik qoidalari bor. Ularga qat'iy rioya qilish bolalarni jarohatlanishdan saqlaydi. Bular quyidagilar:

Yugurib o'ynashda:

- yugurib borayotgan bolani itarmaslik;
- tutilayotgan bolaga qo'lni salgina tekizish;
- yugurib kelayotgan o'rtog'ining yo'lini kesib o'tmaslik;
- ko'ptok, toshchalar, qopcha, granata va hokazolarni maydonda bolalar yo'qligida uloqtirish va boshqalar.

Oila va uy-ro'zg'rishlarida:

- issiq suvi bo'lgan choynak, kastrulkani stolning chetiga qo'yimaslik;
- issiq choynak, kastrulkani latta bilan ushlab;
- issiq suvni olib borishda qoqilib ketmaslik uchun hushyor bo'lish;
- gugurt o'ynamaslik;
- yonayotgan gaz ustiga engashmaslik;
- noma'lum kukun va suyuqliklar ta'mini tatib ko'rmaslik.

Cho'milishda:

- faqat maxsus jihozlangan joylarda cho'milish;
- chuqur soy, hovuz va ariqlarda havo to'ldirilgan yelim o'yinchoq va moslamalarda suzmaslik;
- sho'ng'ishda suv havzasining tubini yaxshi bilish;
- suzib borayotgan o'rtog'ining tagidan suzmaslik.

Arg'imchoq uchishda:

- arg'imchoqda to'g'ri o'tirish;
- arg'imchoq to'xtagandan keyingina undan tushish;
- arg'imchoqdan sakrab tushmaslik;
- yotib arg'imchoq uchmaslik;
- arg'imchoqni juda balandlatib uchirmaslik.

Velosipedda uchishda :

- transport va piyodalar harakati serqatnov joylarda velosiped uchmaslik;
- velosipedni o'rtog'i bilan kim o'zarga haydamaslik;
- ikki kishi bo'lib velosipedda uchmaslik;
- velosipedni asta-sekin to'xtatish, tez ketayotganda birdan to'xtamaslik. Nafas olish organlari va tovush apparati kasallanishining oldini olishda burundan to'g'ri nafas olish, maqsadga muvofiq kiyinish; organizmni chiniqtirishda esa jismoniy tarbiya katta rol o'ynaydi. Bulardan tashqari bolalarni shamollash kasalliklarining oldini olish goidalari bilan tanishtirish kerak:

- terlab turgan vaqtda sovuq ichimliklar ichmaslik va muzqaymoq yemaslik;
- muz ustida o'tirmaslik;
- o'ta issiq suvga tushmaslik;
- sovqotish belgilari (yuzning rangsizlanishi, lablar qurishi, etning jimirlashishi) paydo bo'lishidan oldin cho'milishni to'xtatish;

-sovuq, nam bosgan xonalarda yoki nam sovuq havoda sayr qilganda qattiq gaplashish;

-juda ham isib ketgan xona yoki issiq vannadan sovuqqa chiqmaslik. O'quvchi-talabalarni jarohatlanishdan ogoh bo'lishga undash va har qanday sharoitda o'zaro yordam bera oladigan shaxsni yetishtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Agafonov. Ob-havova salomatlik. T.: «Meditsina», 1987.
2. Aminov V. Sog'lom turmush tarzi — inson omilini kuchaytirish garovi. — T.: Meditsina, 1999.
3. Boxodirov K., Boboxodjayev N. Sog'lig'ingiz o'z qo'lingizda. — T.: Meditsina.
4. Mahkamov M., Sodiqov Q. Sog'lom avlod yarataylik. — T.: «O'qituvchi», 1996.
5. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. — T.: Fan, 1993.
6. Mo'minov X. Sog'lom turmush — sog'liqqa yo'l. — Urganch, 1996.
7. Nasriddinov F. , A'zamov R. Tarbiya va salomatlik tushinchalarining uyg'unligi. — T.: Fan, 1992.

REANIMATSIYA BO'LIMIDAGI BEMORGA HAMSHIRALIK PARVARISHINING XUSUSIYATLARI

Ubaydullayeva Sitora Azim qizi
Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada reanimatsiya bo'limida bemorlarni parvarish qilishda hamshiraning faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: reanimatsiya, intensiv, terapiya, hamshira, bemor.

Reanimatsiya bo'limida va intensiv terapiya bo'limlarida bemorlarga g'amxo'rlik qilish kasallikning natijasi ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan kompleks chora-tadbirlar majmuidir. Ushbu tadbirlarning aksariyati hamshiralalar zimmasiga yuklanadi. Ulardan barcha manipulyatsiyalarni to'liq o'zlashtirish talab etiladi. Bu, birinchi navbatda, bo'limda sanitariya-gigiyena rejimiga rioya qilish, reanimatsiyani amalga oshirish, og'ir va ongsiz holatda bemorlarni parvarish qilish qobiliyatiga taalluqlidir. Bemorning ahvolining tez o'zgarishi bemorni diqqat bilan kuzatishni, atrof-muhitga aniq yo'naltirishni va professional kuzatuvni talab qiladi. Reanimatsion bemorlarga, shuningdek intensiv terapiya bo'limlarida yotgan bemorlarga yordam umumiy va maxsus yordamning barcha elementlarini (jarrohlik, nevrologik, travmatologik va boshqa bemorlarga nisbatan) o'z ichiga oladi. Bemorning funktsional jihatdan qulay holatda bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi. Eng keng tarqalgani - supin holati. Biroq, bu holatda, etarli darajada parvarish qilinmagan taqdirda, bu pozitsiya tezda sakral mintaqada bosim yarasi rivojlanishiga, nafas olish qiyinlashuviga olib kelishi mumkinligini esga olish kerak. Yotoq yaralarini, shuningdek, o'pkada turg'unlikning rivojlanishini oldini olish uchun tibbiy xodimlar har 2 soatda bemorning tanasining holatini o'zgartirishi kerak (qoida tariqasida, yon-orqa ketma-ketlikda), terini bronzlash vositalari bilan artib oling. (kofur spirti, etil spirti), suyak o'simalari prokladkalari ostiga doka halqalarini, havo bilan to'ldirilgan kauchuk doiralarni qo'yning.

Bosim yaralarining oldini olish uchun maxsus dekubitusga qarshi matraslar yoki to'shaklardan foydalanish yaxshidir. Komada bo'lgan bemor havo yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlash uchun tizza bo'g'imida oyog'ini egib, tanani ishonchli tarzda mahkamlab, lateral holatda joylashtirilishi kerak. Yuqori oyoq-qo'l ko'krak ostiga qo'yilgan yostiqqa yoki ruloga qo'yiladi. Protezlar olib tashlanadi. Shox parda qurib qolmasligi uchun kuniga 2-3 marta ko'zlarga 2-3 tomchi vazelin yoki shaftoli yog'i tomiziladi.

Teri kuniga 1-2 marta yaxshilab artiladi, uning burmalari va bezi toshmalari talk yoki chaqaloq kukuni bilan sepiladi. Yuzni nam sochiq bilan artib oling. Venipunktura, qon tomirlarini kateterizatsiya qilish, siydik pufagini kateterizatsiya qilish, infuzion tizimlar va bog'ichlarni almashtirishda qat'iy aseptika kuzatiladi. Bemorning ong holatini dinamik monitoringini o'tkazish kerak. Tibbiy yordamning samaradorligi ko'p jihatdan reanimatsiya bo'limlarida tizimlar, shprintslar, ignalar va bir martalik kateterlardan foydalanish imkoniyatiga, tibbiyot xodimlarining doka niqoblarini o'z vaqtida almashtirishiga bog'liq. Bemorning ovqatlanishi, suyuqliklarni tanaga kiritish bo'yicha shifokorning tavsiyalariga qat'iy rioya qilish kerak. Eritmalarni qon tomir to'shagiga kiritish ular inson tanasining normal haroratiga yaqin haroratgacha qizdirilgandan so'ng amalga oshiriladi. Reanimatsiya bo'limlarida bemorlarga g'amxo'rlik qilishda psixologik jihatlar ham ma'lum ahamiyatga ega. Shifokorlar, hamshiralar va hamshiralar rahm-shafqat ko'rsatishi, bemorga e'tiborni kuchaytirish muhitini saqlab turishi, u haqida gapirishda ehtiyot bo'lishlari kerak, shunda ular yatrogen azob-uqubat manbai bo'lib qolmaydi.

Og'riq, qo'rquv, elementar funktsiyalarni bajara olmaslik, nochorlik va himoyasizlik bemorni bolaning holatiga qo'yadi (psixologiyada shaxsning regressiyasi deb ataladigan hodisa). Bo'lim xodimlari bu holatni chuqur his etishlari, empatiya (bemorning holatiga ko'nikish qobiliyati) usulini mukammal egallashlari va ularning barcha xatti-harakatlari, mimikalari, imo-ishoralari bemorda shifo topishga umid uyg'otishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oripov .O' " Umumiy Xirurgiya" 2008-yil
2. Zokirova K.O "Hamshiralik ishi asoslari" 2006- yil
3. Manba: Mt.Sammi.uz

OVQATLANISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISH

Atajanova Sayyora Davronbekovna
Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada to'g'ri ovqatlanish va uning gigiyenasi, ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilish tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ovqatlanish, energiya, mikroob.

Ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish. Ushbu yo'nalis umumiy harakterga ega bo'lib, u sog'lom turmush yulidagi harakat dasturini belgilaydi. 19-asrdan boshlab oziq-ovqatlarning tarkibiy mutanosibligi, energiya muvozanati, mikroblar, ovqatlanish tartibi haqida ilmiy qarashlar paydo bo'ldi, bu esa uz navbatida dietologiya fanini shakllanishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunga kelib esa, noto'g'ri va noratsional ovqatlanish kishilar o'rtasida uchrayotgan oshqozon - ichak, yurak qon-tomir, ichki sekretiya bezlari, bo'gimlar, modda almashinuvining buzilishi, rak kasalliklarining asosiy sababchisi ekanligi ilmiy ravishda isbotlandi. Jahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining ekspertlari P.Ravel va Ch. Ravellar «Kishilar o'rtasida uchrayotgan kasalliklarning 80% noto'g'ri ovqatlanishdan» degan fikrlarni bildirganlar. Portugaliyalik buyuk dietolog E. Perish aytganidek «Faqatgina ovqatlanish bizni mayda yoki yirik, nodon yoki aqlli, nimjon yoki kuchli, bo'shashgan yoki g'ayratli, odamovi yoki sog'lom muammolarga layoqatli qiladi». Lekin insoniyat bu masalada hamon o'zining o'tmishdagi odati – ovqatlanishda nafs va hohishning ta'siridan qutila olmayapti. Oqibatda bu holat kishilar o'rtasida kasalliklar va o'limning asosiy sababchilaridan biri bo'lmoqda. Bu masalalar ovqatlanishda savodsizlik va befarqlik bilan bir qatorda jamiyatda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ovqatlanishni biznes asosga qo'yilganligi, pul va boylik orttirish yo'lida bir qancha oziq-ovqatlar, ichimliklar reklamasi, shuningdek, ovqatlarni nogigienik tayyorlashga asoslangan «ko'cha ovqatini kafe, bar, restoranlar» ham katta rol o'ynashmoqda.

Shuning uchun ham bugungi kunda ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilish, inson kundalik turmushining eng asosiy talablaridan biri va buni sog'lom turmush tarzini tashkil etishda hisobga olmaslik mumkin emas. Bu kundalik iste'mol qilinayotgan oziq - ovqat mahsulotlarini kishilar organizmida fiziologik, biologik talablar asosida tashkil etishdir. To'g'ri ovqatlanish shunday tashkil etilishi kerak-ki, u o'zining fizik – kimyoviy hamda biologik xususiyatlari bilan inson tanasiga og'irlik qilmasligi, aksincha tez va oson hazm bo'lib, organizmni kerakli oziq moddalari bilan ta'minlay olishi lozim.

Bu o'rinda biz quyidagi talablarga rioya qilishimiz kerak:

- ovqatlik mahsulotlari tarkibini kishi organizmining fiziologik talablariga mos bo'lishini ta'minlash;
- iste'mol qilinadigan ovqatning miqdorini kishi sarf qiladigan energiyaga mos bo'lishini ta'minlash;
- ovqatlanish rejimini kishi badanidagi biologik qonuniyatlarga mos bo'lishini ta'minlash;
- har galgi ovqatlanishda badan fiziologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish;
- ovqatlarni tayyorlashda uning tarkibi va sifatini saqlab qolish tartiblariga rioya qilish;
- ovqatlik mahsulotlarni etishtirish, tanlash va saqlashga bo'lgan talablarga rioya qilish;
- ovqat hazm qilish a'zolari tuzilishi va ulning funktsiyalari to'grisidagi qisqacha ma'lumotlarga ega bo'lish;
- ovqat hazm qilish tizimi normalarini baholovchi asosiy ko'rsatkichlarni bilish;
- ovqat hazm qilish tizimi muammolarida tadbirlar qo'llash hamda mutaxasislarga murojaat qilish. Agarda, ovqatlanishda yuqoridagi harakat dasturiga rioya qilsangiz va shu talablarning har birisi bo'yicha oddiygina tushunchalarga ega bo'lib, ularni o'z turmushingizda qo'llashni bilsangiz, siz ovqatlanishni ongli tashkil qilgan bo'lasiz va hech qachon u bilan bog'lik muammolarga duch kelmaysiz.

Shuning uchun, yuqoridagi ovqatlanishga bo'lgan talablarning har birisi bo'yicha alohida to'xtalib utishga to'g'ri keladi. Ovqatliklarning tarkibida un mahsulotlari va shirinliklarni muntazam ortiqcha iste'mol qilish natijasida butun tanada xilt ko'payib ketadi. Ortiqcha xiltlar ichki a'zolar, badan bushliqlari va bo'gimlarga o'tib a'zolar faoliyatini qiyinlashtirish oqibatida, artrit, poliartirit, radikulit, osteoxondroz, semirib ketish, ichaklarda qabziyat, qandli diabet, tomirlarda ateroskleroz, tana va ichki a'zolarida o'smalar paydo bo'lishi kabi kasalliklarga sharoit yaratadi. Ovqatining tarkibida un mahsulotlari va shirinliklar ko'p bo'lgan insonlar orasida tez-tez shamollash, har xil virusli toshmalar toshishi, gaymorit, frontit, otit, surunkali tanzillit, faringit va tanadagi ortiqcha xiltlarni bronxlar orqali ko'plab ajralib chiqishidan tez-tez tomoq qirish, burun qoqish, balg'am tupirish kabi holatlar ko'p uchraydi. Ovqatliklarning tarkibida go'sht, tuxum kabi oqsillarni surunkali iste'miol qilish natijasida buyraklar faoliyatining qiyinlashuvi, buyrakda, o't qopida, siydik chiqaruv yo'llarida tosh hosil bo'lish, ichaklarda qabziyat, ruxiatning buzilishi, asabiylik kabi holatlarga sabab bo'ladi. Ovqatliklar tarkibida yog'larni, ayniqsa mol yog'larining ortiqchaligidan qonning tarkibi quyushib, tomirlarda ateroskleroz va uning oqibatida yurakda stenokardiya, infarkt holatlari, qon bosimining yuqori bo'lishi, xolesistit, semirib ketish kabi holatlarga olib keladi. Ovqatliklar tarkibida vitaminlarning etishmasligidan parchalanish jarayonlari sustlashuvi oqibatida a'zolarning faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalar yetishmasligi sodir bo'ladi.

Oqibatda bolalarda raxit, kattalarda shapko'rlik, organizmdagi barcha muhim jarayonlarning susayishi kabi holatlarga olib keladi. Ovqatliklarning kimyoviy zaharli moddalar bilan zararlanishidan turli darajalardagi ovqatdan zaharlanishlar, radioaktiv moddalar bilan zaharlanishidan esa, sochlarning to'kilib ketishi, ichki a'zolar faoliyatining susayishi, bepushtlik, rak, oq qon kabi og'ir oqibatlariga olib keluvchi kasalliklar yuzaga keladi. Ba'zi bir ovqatlik turlarining ayrim odamlar organizmiga mos kelmasligidan terida har xil toshmalar toshishi va qichishi (dermatitlar), oshqozon va ichaklarda - gastrit va kolit, miya to'qimalarining zaharlanishi – migren, meningit, nafas olishning kiyinlashuvi – diqqinapaslik, yurakda xuruj-stenokardiya va butun organizmda bezovtalikka sabab bo'luvchi allergik holatlarga olib keladi. Ortiqcha ovqatlanish va ovqatxo'rlik tufayli, semirib ketish kadi qomatning buzilishi, go'zallik va ephillikning izdan chiqishi, kishi gavdasining beso'naqay, ko'rimsiz, kiyim - kechak yarashmaydigan ahvolga kelib qolishi, nafas olish va harakatlarning qiyinlashuvi, tanadan va og'izdan qo'lansa hidlarning tarqalishidan noqulay ahvolga tushish, kasallanish ehtimollarining ortib borishi yuz beradi. Spirtli ichimliklarni surunkali iste'mol qilish oqibatida ruhiyatning buzilishi, asabiylik, o'z hatti-harakatlarini nazorat qila olmaslikdan insoniy, ahloqiy normalardan chetga chiqish, obro'-e'tiborning, farzandlar tarbiyasida ma'suliyatning bo'lmasligi, jinoyatga qo'l urish, insonni shaxs sifatida inqirozga yuz tutishi, uydan, eldan, oiladan, bolachaqadan ajrab yakka yolg'izlikda yashab umrini barbod qilish holatlari uchrab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatkulov B.M. Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshkarish. //darslik, Toshkent, 2013. 573b.
2. T.I.Iskandarov, B.Mamatkulov Sanitariya-statistik va ijtimoiygigienik tadqiqot uslublari. //darslik, Toshkent, 1994. – 200 b.
3. B.M.Mamatkulov, B.A.Umarov Uzbekiston Respublikasida sanitariya epidemiologiya xizmatini tashkil etish asoslari. //darslik, Toshkent, 2011. 211b.
4. B.Mamatkulov. Tibbiyot statistikasi (Biostatistika) asoslari //darslik, Toshkent, 2005. -132 b.

RUS TILI FANINI O'RGANUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH USUSLLARI

Ruzmetova Mayya Anvarovna

*Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat
salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tili fani o'rganuvchilarni nutqini rivojlantirish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, samaradorlik, Smart Education, dars ishlanma, pedagogik texnologiya.

